



BADIY ADABIYOTDA ONA OBRAZINING YARATILISH TARIXI

Fayzullayeva Munavvar Bahodirovna

SamDChTI o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola badiy adabiyotda Ona obrazlarining yaratilishi tarixi haqida bo'lib, O'zbek yozuvchilarining asarlari asosida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Ona obrazi, badiy adabiyot, Obraz va timsol tushunchalari, San'at, adabiyot*

Adabiyot so`z san`atidir. U inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ohanglarni ilg`ashga, ularni so`z vositasida aks ettirishga intiladi. U jamiyat tarixidagi jiddiy o`zgarishlarni xilma – xil obrazlar vositasida turli badiy shakllarda aks ettiradi. Inson tafakkurining yangilanishida, uning ongiga ma`lum bir g`oyani singdirish uchun hech qaysi soha adabiyotchalik kuchga ega emas. Badiy adabiyotimizga nazar tashlaydigan bo`lsak, unda yaratilayotgan har bir kichik hikoyaning ham o`z yaratilish tarixi bor. Biron bir shoir yoki yozuvchi o`zining boshdan o`tgan yoki, ko`zi o`ngida sodir bo`lgan voqeа va hodisalarni oq qog`ozga tushirish uchun juda ko`p mashaqqat chekadi. Negaki, u o`sha asarida tug`iladi, yashaydi va o`ladi. Asar esa uning farzandidek bo`lib qoladi. Uni xalqqa tanitish, omma ichiga olib kirib, ularning qalbiga yetkazish uchun esa, o`zining yuksak mahoratini ishga solish kerak. Yaratgan asari shunday ta`sirli, har tamonlama yetuk, saviya jihatdan salmoqli bo`lsagina yozuvchini xalq tan oladi. Buning uchun esa avvalo, u so`zdan to`gri foydalana bilishi lozim. Insondagi ismsiz tuyg`ular, nozik kechinmalar, ko`z bilan ko`rib, qulqoq bilan eshitmaydigan ruhiy holat jilvalarini faqat so`z yordamida ifoda etishi mumkin. Badiy adabiyot san`atning boshqa turlaridan asosiy ish quroli ham, asosiy materiali ham so`z ekanligi bilan aralib turadi. San`atning adabiyotdan boshqa har qanday turi inson hayoti yoki hissiyotining faqat birgina holatini ifoda eta oladi xolos. Badiy adabiyotda aks ettirilgan hayot serqirraligidan tashqari o`qigan kishiga qattiq ta`sir ham ko`rsata oladi.

Har bir xalq adabiyotining o`z tarixi bor bo`lganidek, xususan o`zbek adabiyotining ham tom ma`noda sezilarli va tunganmas tarixi bor. Bu tarix bugungi adabiyotimiz uchun poydevor vazifasini o`taydi desak mubolag`a bo`lmaydi. O`zbek adabiyoti juda boy,qadimiylar tarixga ega. Uning o`ziga xos shakllanish va taraqqiyot yo`li rivojlanish qonuniyatları bor. Bularni his etish, anglash va umumlashtirish uchun uning tarixini puxta o`rganish zarur. Badiy adabiyot tarixi so`z san`atining rivojlanish jarayonlari haqida ma`lumot beradi. Odam paydo bo`libdiki, so`z ham yaralgan. Keyinchalik esa shu so`z orqali, undan unumli foydalanish bilan ajdodlarimiz bir qancha nodir va noyob asarlar yaratganlar. Ular o`z asarlarida asosan, o`zlari yashagan davr va muhit holati, o`sha davr odamlarining ahvolini ochib berishga harakat qilganlar. Lekin o`sha



asarlarda turli xil qahramonlarning taqdiri, ularning orzu umidlari ham aks etadi. Bundan tashqari, o`zbek adabiyot tarixida yaratilgan har bir asarning tub zamirida ona obrazini ko`ramiz. Ona obrazining yaratilishi uzoq o`tmishga borib taqaladi. Tarixga nazar solar ekanmiz, jasoratli ona obrazining yaqqol timsoli sifatida "To`maris", "Kuntug`mish", "Alpomish", "Rustamxon" kabi xalq og`zaki ijodiga mansub dostonlarimizdagi ona obrazlarini misol qilib olishimiz mumkin. Masalan: To`maris – masagget xalqining jasoratli onasi. U o`glining asir tushib, o`z joniga qasd qilganiga ham qaramay ayol bo`la turib, xalqini dushmanlardan himoya qiladi. O`g`lining va bir umr dushman tomidan ezilgan xalqining o`chini olish maqsadida jangga otlanadi. Qonga to`ymagan dushman Kir II ning boshini qon to`ldirilgan mesh ichiga solib, yovuzlik taqdiri naqadar ayanchli yakun topishini yana bir karra isbot qiladi. U har tamonlama jasur va mard ayoldir. O`z o`g`lini yo`qotish qanchalik og`ir qismat ekanligini dushmanlariga ko`rsatmaydi. Keyinchalik To`marisning qilgan ishlari to`g`risida xalq dostonlari, rivoyatlar to`qildi. Hatto, o`zbek yozuvchisi Mirkarim Osim "To`maris" qissasida uni ulug`laydi. Ibroyim Yusupov ham "To`maris" (1974) dostonini yozgan. Ikkala yozuvchi ham yaratgan asarlarida To`marisning qanchalik buyuk va jonkuyar ona ekanligini ochib berishgan. "Kuntug`mish" dostonida esa Xolbeka – ona obrazi talqinida gavdalaniadi. U ikki o`g`li dorga osilish arafasida turganda, ularning hayotlarini saqlab qolish uchun, hattoki og`ochga nola qilishdan ham toymaydi. Bu esa o`zbek onalarining naqadar fidokor va jonkuyar ekanligidan dalolat beradi. Nafaqat "Kuntug`mish" dostonidagi Xolbeka obrazi balki, yana bir xalq og`zaki ijodi namunalarimizdan biri bo`lgan "Rustamxon" dostonidagi Huroyim ham muhim ahamiyat kasb etadi. O`zbek onalarimiz uchun janglarda g`alaba qozonish, turli xil qahramonliklar ko`rsatishdan tashqari, o`z farzandini el-yurtga nafi tegadigan, xalq dardi bilan yashashga o`rgatish ham ulkan jasoratlar sirasiga kiradi. Onalarga xos bo`lgan bu ajoyib hislat bir erkakning jangda qozongan g`alabasidan buyukroqdir. Yuqoridagi so`zlarimizning isbotini Huroyim obrazida ko`rishimiz mumkin.

Obraz yaratalish jarayonida badiiy to`qima muhim ahamiyat kasb etadi. U asarni ta`sirchangligini oshirib, badiiy – estetik bo`yoqdorligini oshiradi. "Zotan, butun adabiyot badiiy to`qimalardan iborat, chunki turmush hodisalarini zamon va makon ichida sochilib yotadi".¹ Bu fikrlarga misol qilib O`tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridan quyidagi parchani keltirishimiz mumkin. "Oyi men keldim... eshityapsizmi oyi, men yana keldim. Qabringizni silab qo`ysam orom olasizmi?... Mana oyijon, mana Yo`q, yo`q,yig`laganim yo`q. Hozir, hozir o`tib ketadi...".² Balki bu parchani alohida o`qigan kitobxon unchalik hayajonga tushmas. Biroq, "Dunyoning ishlari"ni bir boshdan o`qib , onani qattiq sevib qolgan kitobxon bu satrlarni o`qiganda larzaga tushmay qolmaydi. Shu

¹ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariysi, T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq Merosi nashriyoti 2004, 36-bet

² Hoshimov O`. Dunyoning ishlari, T.: Yangi asr avlodni, 2017. 256- bet



parchaning o`zigma insonning qalbiga kirib, uning tub – tubida yashiringan hissiyotlarini jumbushga keltiradi.

Demak, obraz yaratish har bir ijodkor ijodida uchraydi. Obraz yaratish uchun yuksak mahorat egasi bo`lmog`i darkor. Bundan tashqari adabiyotshunosligimizda obraz terimini timsol tushunasi ham qo`llaniladi. Ya`ni u ikkala so`z sinonim sifatida ishlataladi. Lekin biz timsol deganimizda ko`z oldimizda biron bir asardagi bosh yoki epizodik qahramon gavdalanadi. Nafaqat ko`z oldimizda balki u ham obrazga o`xshab, ongimizda paydo bo`lib, tafakkurimizda shakllanadi so`ng ko`z oldimizga keladi. Shuning uchun bu ikkala tushuncha deyarli bir ma`noni anglatadi. To`g`ri, ayrim manbalarda farqlanishi, ularga berilgan izohlar boshqa – boshqa bo`lishi mumkin, lekin tub mohiyati aynan o`sha ma`noni beradi. Obraz va timsol tushunchalarini sinonim tarzida qo`ydik, lekin ularga o`xshab ketadigan, ammo ba`zi jihatlardan farq qiladigan tushuncha bor bu - xarakter.

Obraz va xarakter tushunchalari nafaqat o`zbek adabiyotida balki, jahon adabiyotida ham juda keng ko`lamda talqin qilinadi. Che`t el adabiyotida obraz tushunchasiga Belinskiy shunday ta`rif beradi: "Obraz deganda inson ongida in`ikos etilgan voqeа – hodisalargina emas, balki shu bilan birga so`z vositasida san`atkor tomonidan anglagan, qayta ishlangan va tasvirlangan hayot tushuniladi"³. Yuqorida bu ikrlar o`zbek adabiyotida berilgan ta`riflardan unchalik farq qilmaydi. Jahon adabiyotida yozuvchi bir biron asar yaratish uchun kuchli mahorat egasi hamda, yuksak fantastik fikrlash qobiliyatiga ega bo`lishi lozim. Negaki, jahon adabiyotida chuqur mushohada qilib, teran o`ylashga majbur qiladigan, obrazlar va xarakter jihatdan umuman boshqa – boshqa, bir – biridan tubdan farq qiladigan asarlар ko`p. Jahon adabiyotini o`zbek adabiyotidan farqli tomoni shundaki, uni bir qarashda g`oyaviy mazmunini anglash mushkul bo`lsa - da, o`quvchi yoki kitobxon tomonidan chuqur qiziqish bilan mutolaa qilsagina, uning tub zamiridagi mazmunni uqib olishi mumkin. Sh u tariqa, yoshlarimiz hayotidagi turli xil to`sirlarni yengib o`tuvchi dasturiyal vazifasini bajaradi. Jahon adabiyoti keng qamrovli bo`lib unga, ingliz, nemis, rus, qozoq qirg`iz va boshqa millatlarning adabiyotlari ham kiradi. Har bir millatning o`ziga yarasha adabiy merosi, dunyo tan olgan nodir va noyob asarlari bor. Bu asarlarda turli xil mavzular jumladan; inson qadr – qimmati, ayol va uning ruhiyati, turmush muammolari, osha davr muhiti, ijtimoiy – iqtisodiy sohalar, urushning qiyofasi kabi dolzarb mavzular yoritilib beriladi. To`g`ri, che`t el adabiyotida oila, ota – ona, farzand munosabatlari o`zbek adabiyotidagi kabi chuqur va teran ifoda etilmaydi. Lekin, ayrim asarlarda ona qiyofasi, farzandning ota – onasiga bo`lgan cheksiz mehr - muhabbat, oila muqaddas dargoh ekanligi mazmunli yoritiladi. Shunday asarlardan biri, qirg`iz xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asaridir.

³ Belinskiy V. G .Adabiy orzular. T.: G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 1977, 110- bet



Yozuvchi bu asarida romanning bosh qahramoni Nayman ona siyosini shunday tasvirlaydiki, onaning farzandiga bo`lgan mehr – muhabbatini hech narsa bilan taqqoslab bo`imasligini isbotlab beradi. U farzandining vafotiga ishonmay, uning kelishini bir umr kutadi. Bir necha vaqtdan so`ng esa, o`g`li Jo`lomonning tirikligi, uni manqurtga aylanib qolganini eshitadi va o`z bolasini ko`rgani yoniga boradi. U o`glining hayot ekanligini bilib, shu darajada quvonib, lekin uning tanimaganidan alam va daxshatdan lablari dirrilab, shuncha urinsa ham o`zini qo`lga ololmaydi. Ona bo`zlab yig`lab, farzandining osha tanish nigohlariqa boqib, balki meni tanib qolar degan umid bilan ko`zini uzmay turadi. Qayta – qayta ozini tanishtiradi. Vaholanki, Jo`lamon hattoki o`z ismini ham unitgan edi. Unga uning ismi Jo`lamon otasining ismi Do`nanboy ekanligini Nayman ona uqtirishga harakat qiladi. Farzandining boshidagi tuyaning terisidan yasalgan qalpoq o`zligini hatto o`z tuqqan onasini ham unittirishga sabab bo`ladi. Va u shu tariqa manqurtga aylanib qoladi. Shu manqurtligi tufayli o`z onasining qotiliga aylanishdan ham hayiqmaydi. Chingiz Aytmatovning ushbu asarida farzandi o`z onasining umriga zomin bo`lishini ajoyib chizgilar orqali yoritib beradiki, buni o`qigan har bir insonning qalbi jumbushga keladi. Bu esa, inson sifatida o`z – o`zini anglash g`oyat murakkab jarayon ekanini va insoniyat ming yillardan beri ma`naviy ulg`aydimi yoki yo`qmi, degan muammo to`g`risida mushohada yuritishga undaydi. Zero, onaizor qalbi xoh ming yil oldin bo`lsin, xoh hozirgi adabiy jarayon bo`lsin hech qachon o`zgarmaydi. Bu hislat onalarimizga Allah taollo tomonidan berilgan buyuk fazilatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Buronova D. B. Theoretical methodological basis of studying the author's art method //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 2. – C. 47-52.
2. Baxodirovna D. B. ARTISTIC STYLE OF THE WORKS OF ERNEST SETON-THOMPSON //British View. – 2023. – T. 8. – №. 2.
3. Umida K. et al. DEVELOPMENT STAGES OF THE CONCEPT TO CONSTRUCTIVISM //湖南大学学报 (自然科学版). – 2022. – T. 49. – №. 07.
4. Rakhimova Marguba Khamzaevna In search of a backbone mechanism in language // Евразийский научный журнал. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/in-search-of-a-backbone-mechanism-in-language> (дата обращения: 15.06.2023).
5. Rakhimova M. K. COMPARISONS AND THEIR FUNCTION IN THE NOVEL "THE GOD OF SMALL THINGS" BY A. ROY //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 9. – C. 708-710.



"MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"



6. Bakhtiyorovna S. I., Fevzievna K. L., Khamzaevna R. M. How to support healthy class competition in an English lesson //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 2. – C. 399-402.
7. Abduraximova F. MENTALITY AND NATIONALITY IN PROVERBS OF ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 691-694.
8. qizi Abduraximova F. K. INGLIZ TILINI O 'QITISHDA MAQOLLARNING ROLI //SCHOLAR. – 2023. – T. 1. – №. 12. – C. 123-127.
9. qizi Abduraximova F. K. LINGVOKOGNITOLOGIYA: TIL VA TAFAKKUR //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 47-50.
10. qizi Abduraximova F. K. LINGVOKOGNITOLOGIYA: TIL VA TAFAKKUR //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 47-50.
11. qizi Abdurakhimova F. K. USAGE OF MULTIMEDIA IN ENGLISH TEACHING //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 96-101.
12. Fayzullayeva M. B., Sattarova I. B., Makhmudova M. A. The effect of teaching vocabulary through ICT on EFL learners //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 1632-1637.
13. Baxtiyorovna S. I. Importance of videoconferencing in education and comparison of some types of applications //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 2. – C. 319-322.
14. Shoyzokhovich S. S., Bahtiyarovna S. I., Fevziyevna K. L. Poly functionality of a word in the context of speech //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 488-491.
15. Sattarova I. SELECTING THE MOST APPROPRIATE METHOD ACCORDING TO THE GRADES //МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ. – 2020. – C. 405-408.
16. Sattorova F. E. Modern methods in teaching foreign language //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 297-302.
17. Elmurodovna S. F. THE IMPORTANCE OF DEVELOPING PRAGMATIC COMPETENCE OF LANGUAGE LEARNERS //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 100-105.
18. Elmurodovna S. F. THE ASSESSMENT PRINCIPLES OF PRAGMATIC COMPETENCE IN CLT (COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING) //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – T. 1. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
19. Sattorova F., Nasrullaev J. FROM THEORY TO PRACTICE FOR TEACHING LISTENING EFFICIENTLY IN ESL/EFL CLASSROOMS //BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS. – 2018. – C. 113.



"MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"



20. Narzullayevna S. N., Odina B. Linguistic skills such as familiarity with grammatical structures, vocabulary, and phonetics //Sciencepublish. org. – C. 41.
21. Mehriniso N., Siddiqova N. N. USING INTERACTIVE METHODS FOR THE FORMATION OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 10-14.
22. Siddikova N. N., Gafforova S., Gafforova I. APPROACHES TO DEVELOPING FOREIGN LANGUAGE TEACHING SYSTEM IN NONLINGUISTIC HIGH SCHOOLS OF UZBEKISTAN //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 24. – C. 381-388.
23. Narzullayevna S. N., Iroda G. Types of interactive methods in developing intercultural competence in different age groups //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 159-162.
24. Siddikova N. N., Makhmudovna M. A., Alisherovna O. I. Philosophical and methodological analysis of organizational learning concepts //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 2. – C. 403-407.
25. Fayzullayeva M. B. et al. USING TECHNOLOGIES IN THE ENGLISH LANGUAGE LEARNING AND TEACHING //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 1-5.
26. Fayzullayeva M. B. Information and communication technologies in English lessons." //Экономика и социум. – 2022. – T. 5. – C. 96.
27. Fayzullayeva M. B. THE PROBLEMS OF USAGE INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES (ICT) IN ENGLISH CLASSROOM //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 725-730.
28. Fayzullayeva M. B. ICT is the key of motivation in teaching FL //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 9. – C. 711-716.
29. Рахимова М. Х. и др. МАГИЧЕСКИЙ РЕАЛИЗМ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ БУЛГАКОВА //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-1 (106). – C. 450-454.
30. Fayzullayeva M. B., Sattarova I. B., Makhmudova M. A. The effect of teaching vocabulary through ICT on EFL learners //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 1632-1637.
31. Джураева Ш. Г. ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ АНТОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ У СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 47.
32. Джураева Ш. Г. ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ И СЕМАНТИКА МНОГОЗНАЧНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 52.



"MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"



33. Джураева Ш. Г. РОЛЬ КОНТЕКСТА В РЕАЛИЗАЦИИ АНТОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ, ЗАКЛЮЧЁННЫХ В ПАРАДИГМАТИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИКАХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 58.
34. Джураева Ш. Г. СООТНОШЕНИЕ СЕМАНТИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ СЛОВА И ЕГО СОЧЕТАЕМОСТИ В РАЗВИТИИ ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОСТИ //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 62.
35. Шомуродова Ш. Ж. КОНТЕКСТУАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ СТИЛИСТИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. – 2017. – С. 240-241.
36. Шомуродова Ш. Ж. ИЗУЧЕНИЕ СЕМАНТИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ПРИ ОДНОСТРУКТУРНОЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ ДЕРИВАЦИИ (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА) //Ученый XXI века. – 2016. – №. 2-4.
37. Шомуродова Ш. Ж. Теоретические предпосылки фразеологической деривации //Вестник Челябинского государственного университета. – 2010. – №. 22. – С. 148-150.
38. Suyunov B., Kobilova N., Suyunov J. GAMIFICATION AS A METHOD OF INCREASING MOTIVATION OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE ON THE EXAMPLE OF ENGLISH //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. В2. – С. 41-45.
39. Malikova, D. G., and N. S. Qobilova. "ALTERATIONS OF TESTING SYSTEM IN THE PERIOD OF Z GENERATION." Экономика и социум 6-1 (97) (2022): 161-164.
40. KOBILOVA N. S., SUYUNOV B. S. O. G. L. I. METHODS OF USING GAME ACTIVITY IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN UZBEK PRIMARY CLASSES //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука. – 2022. – №. 4. – С. 485-489.
41. Gayratovna, Malikova Dilnoza, and Qobilova Nodira Sanakulovna. "Changes in teaching content and test design for generation z in Uzbekistan." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12.3 (2022): 359-362.